



“MA’MURIY HUJJATNI BEKOR QILISH TUSHUNCHASI: O‘ZBEKISTON VA GERMANIYA QONUNCHILIGI MISOLIDA”

Sa’dullayeva Zarina Mamurjonovna

Huquq sohalari, huquqiy va siyosiy tadqiqotlar

amaliy tahlili yo‘nalishi magistranti

ORCID: 0000-0001-7134-0094

e-mail: zarinasadillaeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19603614>

ARTICLE INFO

Received: 4th April 2026

Accepted: 5th April 2026

Published: 16th April 2026

KEYWORDS

Ma’muriy akt, ma’muriy shikoyat, ma’muriy harakat, bekor qilish, individual akt, jamoaviy akt.

ABSTRACT

Mazkur maqolada ma’muriy hujjat (ma’muriy akt) tushunchasi, uning huquqiy tabiati hamda boshqa turdagi hujjatlardan — xususan, ichki idoraviy, normativ va protsessual hujjatlardan farqli jihatlarini tahlil etiladi. Shuningdek, ma’muriy hujjatlarning asosiy belgilari, ularning huquqiy maqomi hamda ma’muriy hujjatni bekor qilish, institutining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy masala sifatida yoritiladi. Ushbu maqolada Ma’muriy aktlarning mazmun-mohiyatini bir xil tushunish, ularni qo‘llash, qonunchilikdagi ma’muriy akt tushunchasi va ularni eng to‘liq va to‘g‘ri ta’riflash, shuningdek, ma’muriy aktlarning o‘ziga xos xususiyatlari Germaniya tajribasi asosida tahlil qilinadi. Ma’muriy tartib-taomillarga oid qonunchiligini takomillashtirishga doir, shu jumladan ma’muriy aktni bekor qilishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kirish

Ma’muriy hujjatni bekor qilish institutini to‘g‘ri anglash uchun, avvalo, uning mazmun-mohiyati va huquqiy tabiatini aniqlash muhim hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikda “ma’muriy hujjat” tushunchasining qo‘llanilishi, bir tomondan, ma’muriy hujjatning mohiyatini ifodalashga xizmat qilsa-da, ikkinchi tomondan, uning barcha xususiyatlarini to‘liq qamrab olmayotganligi bilan izohlanadi. Bu esa, ayniqsa, ma’muriy hujjatlarni bekor qilish jarayonida turli talqinlar va amaliy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni doirasida ma’muriy hujjatlarni bekor qilish mexanizmlarining yetarli darajada aniqlashtirilmaganligi, ushbu institutni qo‘llash amaliyotida ayrim ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, ma’muriy organ tomonidan ma’muriy hujjatini mustaqil ravishda bekor qilishi hamda sud tartibida haqiqiy emas deb topish o‘rtasidagi chegaralarni aniq belgilash zarurati mavjud.

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi, xususan, Germaniya Federativ Respublikasi ma’muriy huquqida “ma’muriy akt” tushunchasi aniq belgilab berilgan bo‘lib, uni bekor qilish (Rücknahme va Widerruf) institutlari ham alohida tartibda huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Ushbu yondashuv ma’muriy hujjatlarni bekor qilish asoslari, tartibi va oqibatlarini aniq belgilash orqali huquqiy aniqlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xususan, ma'muriy hujjatni bekor qilish asoslarini aniqlashda uning individual-huquqiy xarakteri, tashqi huquqiy oqibatlarga ega bo'lishi va aniq subyektlarga qaratilganligi kabi belgilarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'muriy hujjatlarni bekor qilish institutini chuqur tahlil etish ma'muriy akt tushunchasining yagona va aniq ta'rifiga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi. So'nggi yillarda turli huquqiy tizimlarning yaqinlashuvi sharoitida ma'muriy aktga nisbatan umumiy yondashuvni ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda. Biroq, turli davlatlarda ushbu tushunchaga berilgan ta'riflarning xilma-xilligi, ayniqsa, uni bekor qilish asoslari va tartibini belgilashda turlicha yondashuvlarga sabab bo'lmoqda. Ma'muriy aktning shakllanishi va rivojlanishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, MDH mamlakatlari, xususan, Rossiya hamda Germaniya Federativ Respublikasi qonunchiligida mazkur tushunchaga nisbatan turli yondashuvlar mavjudligi kuzatiladi. Bu esa, o'z navbatida, ma'muriy hujjatlarni bekor qilish institutining huquqiy mohiyatini aniqlashda ham muayyan murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Chunki ma'muriy aktning qaysi belgilar asosida aniqlanishi uning bekor qilinishi mumkin bo'lgan hujjatlar doirasini ham belgilab beradi.

Bunday turli xil ta'riflar ko'pincha ushbu xatti-harakatlarning mohiyatini noto'g'ri tushunishga olib keladi. Garchi ko'pchilik mualliflar ushbu tushunchalarni bir xil o'ziga xos xususiyatlarni ajratib ko'rsatishsa ham, har doim ham boshqaruv harakatlarining boshqa shakllaridan aniq ajratib ko'rsatishga imkon bermaydi. Bu boradagi tushunchalarni birlashtirish aniq bir termin qabul qilish va uni huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yish zarurati paydo bo'ladi. Bu borada birinchilardan bo'lib Germaniya Respublikasining "Ma'muriy protseduralar to'g'risida" federal qonun loyihasida taklif qilingan ma'muriy Aktning ta'rifi ushbu masalaga aniqlik kiritgan deb aytishimiz mumkin.

Germaniya Respublikasining "Ma'muriy protseduralar to'g'risida" federal qonuniga ko'ra ma'muriy akt - "Ma'muriy ishni ko'rib chiqish paytida yuzaga keladigan ayrim masalalarni kollegial organ (mansabdor shaxs) tomonidan hal qilishning huquqni muhofaza qilish shakli" sifatida tushuniladi. Ushbu qonun asosida "Ma'muriy akt" atamasini ko'rib chiqilayotgan harakatlarning huquqiy ta'rifi sifatida birlashtirish mumkinligi to'g'risida dastlabki xulosalar chiqarish mumkin, bu inqilobgacha bo'lgan adabiyotlarda ishlab chiqilganiga qaramay, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda yaqin vaqtgacha keng tarqalmagan edi, ammo yeng to'liq ta'riflardan foydalanishga imkon beradi va ushbu institutning mohiyatini aniq ochib beradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston qonunchiligiga nazar soladigan bo'lsak, Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonun ma'muriy hujjatlarning muhim xususiyatlarini aniq tushunishga imkon bermaydi, ularning mohiyatini aniq ochib bera olmaydi va ularni boshqa toifalardan ajratib turishga imkon beradi. Shu sababli ushbu qonun yangi tahrirda qabul qilinishi kutilmoqda. Bu borada G'arbiy Yevropa fani va qonunchiligi uzoq vaqtdan beri "Ma'muriy akt" tushunchasidan foydalangan holda, ushbu turdagi aktlarni aniqlashda juda keng nazariy va me'yoriy bazani ishlab chiqqan¹.

Masalan, Germaniya qonunchiligida ma'muriy Aktning ta'rifi "davlat huquqi sohasida boshqaruv organi tomonidan ma'lum bir ishni tartibga solish va tashqi tomonga yo'naltirilgan har qanday buyruq, qaror yoki boshqa kuch choralari" sifatida belgilanadi².

Rus va nemis fanlarini qiyosiy o'rganish ma'muriy hujjatlarning(aktlarning) mohiyatini tushunishda ba'zi bir muommolarni ochib beradi; masalan, rus olimlarining fikriga ko'ra, ushbu hujjatlar ya'ni ma'muriy aktlar normativ va individual bo'lishi mumkin, nemis huquqshunos olimlarining fikriga ko'ra — faqat ma'lum bir, yagona ishni tartibga solishga

¹ Y.Saidazimov: "Ma'muriy hujjatni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarini takomillashtirish" dissertatsiya. Toshkent 2025.

² Y.Saidazimov: "Ma'muriy hujjatni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarini takomillashtirish" dissertatsiya. Toshkent 2025.

qaratilgan normalar boshqaruvning tashqi qaratilgan, ma'lum bir vakolat natijasida chiqariladigan hujjat, harakat, harakatsizlik, belgi va signal sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ma'muriy akt Germaniyada davlat boshqaruvining klassik vositasi bo'lganligi sababli, ma'muriy akt doktrinasi Germaniya ma'muriy huquqida, ya'ni uning umumiy qismida Markaziy o'rinni egallaydi. Ma'muriy akt institutiga bo'lgan qiziqishning asosiy sababi davlat boshqaruvi jarayonida davlat boshqaruvi tomonidan ko'rilayotgan choralardan huquqiy himoyalaniish yo'llari to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish zarurati hisoblangan.

XIX asrda Davlat boshqaruvi ma'muriy faoliyatining ayrim shakllariga, xususan ma'muriy harakatga nisbatan faqat muayyan vositalar bilangina tartibga solingan. Shu sababli, davlat boshqaruvining muayyan harakatlaridan huquqiy himoya qilish mumkinligini aniqlash uchun har bir aniq holatda "Ma'muriy akt" tushunchasini aniqlash zarurati paydo bo'lgan. Ushbu harakatni uni amalga oshirish shakliga muvofiq saralash kerak edi. Bu borada Germaniya Respublikasida 1960-yilda, ma'muriy protsessual kodeksi kuchga kirishi, davlat tomonidan 1976-yil 25-mayda qabul qilingan Ma'muriy protsessual qonunning qabul qilinishi ma'muriy aktning aniq yagona ta'rifi ishlab chiqishi va huquqiy jihatdan mustahkamlanishidan dalolatdir. Ushbu qonunning III bo'limi Ma'muriy akt tushunchasi hisoblandi. Germaniya huquqida ma'muriy Aktning talqin qilishni aniq tushunish uchun uning huquqiy ta'rifida mavjud bo'lgan xususiyatlarini hisobga olish kerak. Ushbu qonunda Ma'muriy aktning mazmun-mohiyatini ochib erish uchun 6 ta element mavjud bo'lishi kerakligi keltirilgan. Ta'rifda keltirilgan barcha oltita element bitta funksiyani bajaradi ular ma'muriy hujjatlarni davlat boshqaruvi faoliyatining amaldagi turli shakllaridan ajratib turadi. Biroq qonunning 35-bo'limida ko'rsatilgan ma'muriy Aktning elementlari o'z-o'zidan aniq mezon emas va qo'shimcha ravishda batafsilroq talqin qilishni talab qiladi³.

Yuqoridagi ta'rifdan kelib chiqib, ma'muriy aktning huquqiy ta'sir chorasini sifatidagi mohiyatini to'liq anglash uchun uning asosiy belgilari aniqlanishi lozim. Zero, aynan ushbu belgilar ma'muriy aktning boshqa turdagi hujjatlardan ajratish bilan birga, uni bekor qilish mumkin bo'lgan hujjatlar doirasini ham belgilab beradi.

Birinchi, ma'muriy aktning individual-huquqiy xarakterga ega bo'lishi uning eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Ya'ni, u muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsga yoxud aniq belgilarga ega bo'lgan shaxslar guruhiga qaratiladi. Aynan shu xususiyat ma'muriy aktning normativ-huquqiy hujjatlardan farqlaydi va uni bekor qilishni alohida tartibda amalga oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ikkinchi, ma'muriy akt tashqi huquqiy oqibatlarga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. U shaxslarning huquq va majburiyatlarini yuzaga keltiradi, o'zgartiradi yoki tugatadi. Shu sababli, bunday aktning bekor qilish bevosita shaxslarning huquqiy holatiga ta'sir ko'rsatadi va bu jarayon qat'iy protsessual talablarga asoslanishi lozim.

Uchinchi, ma'muriy akt ma'muriy organ tomonidan bir tomonlama tartibda qabul qilinishi bilan ajralib turadi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu akt ustidan nazorat mexanizmlarini, jumladan, uni bekor qilish institutini muhim ahamiyat kasb etishini taqozo etadi. Chunki bir tomonlama qabul qilingan qarorlar har doim ham manfaatdor shaxslar manfaatlariga mos kelmasligi mumkin.

To'rtinchi, ma'muriy akt qonuniylik va asoslantirilganlik talablariga javob berishi lozim. Agar ushbu talablar buzilgan bo'lsa, bu holat ma'muriy aktning bekor qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ma'muriy aktning aynan yuqoridagi belgilari uni bekor qilish asoslarini aniqlashda mezon vazifasini bajaradi. Ya'ni, qaysi hujjat ma'muriy akt sifatida e'tirof etilsa, aynan o'sha hujjatga nisbatan bekor qilish, o'zgartirish yoki haqiqiy emas deb topish mexanizmlari qo'llaniladi.

³ Y.Saidazimov: "Ma'muriy huquqda ma'muriy aktlarni tushunish: O'zbekiston va Germaniya qonunchiligi misolida". Odillik mezoni 2025-y. 1-son

Demak, ma'muriy akt tushunchasini aniq belgilash va uning asosiy xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslash nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u ma'muriy aktlarni bekor qilish institutining samarali ishlashini ta'minlaydi.

Germaniya qonunchiligiga qaraydigan bo'lsak, ma'muriy aktning belgilarini izchil hisobga olgan holda, birinchi navbatda, huquqiy ta'rifda "kuch o'lchovi" sifatida belgilangan elementga, ya'ni bir tomonlama va maqsadli harakatga, boshqarish maqsadida amalga oshiriladigan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita inson faoliyatiga e'tibor qaratish lozim. Ushbu chora haqida bunday keng tushuncha ma'muriy faoliyatning ko'plab sohalarida avtomatlashtirilgan ma'muriy hujjatlarni yaratadigan texnik vositalardan foydalanilganligi sababli qabul qilindi⁴. Jumladan, shaxsiy komputer yordamida chiqarilgan soliq yoki to'lov qarori ham ma'muriy organ irodasining kuch ifodasidir ya'ni ma'muriy aktdir. Bunda avtomatlashtirilgan yechim kelib chiqadi, bu turdagi yechimlarning mavjudligi butunlay ma'muriy organning irodasiga bog'liq bo'lishi muhimdir. Muayyan adresatlarga yo'naltirilgan vakolatli chorani tan olishning muhim mezon - bu vakolatli chorani qabul qilish vaqtida uning aniq manzilini belgilash imkoniyati. Shu bilan birga, kuch o'lchovi bir aniq shaxsga yoki bir nechtasiga qaratilganligi muhim emas, tartibga solinadigan vaziyatning o'ziga xosligi belgisini o'rnatish uchun ma'lum bir shaxslar doirasini individuallashtirish kifoya.

Ikkinchi belgisi "Haqiqiy harakatlar", masalan, ma'muriy organ tomonidan amalga oshirilgan binoni buzish to'g'risidagi qarorining ijrosini ta'minlash haqiqiy harakat emas, chunki bu holda biz vakolatli idoraning — buzish buyrug'ini amalda bajarish haqida gapirmoqdamiz, ya'ni ushbu holatda buzish to'g'risidagi qarorning o'ziga ma'muriy akt hisoblanadi, ijroni ta'minlash esa munsan mustasno⁵. Ushbu holatda harakatsizlik ham ma'muriy akt bo'lishi mumkin emas, chunki kuch o'lchovi har doim Iroda jarayoni bilan bog'liq faol harakatni ta'minlaydi. Irodaning shakllanishi sodir bo'lgan, lekin u "tashqi" ifodalanmagan bo'lsa, irodaning ifodasi bo'lmagan taqdirda ham ma'muriy akt chiqarish mumkin emas⁶. Ya'ni bu yerda Fiktiv ma'muriy akt mavjud deb hisoblay olmaymiz. Demak, bu yerda sukut Iroda ifodasi emas. Biroq, ushbu qoidadan istisnolar maxsus Qonunchilik ta'rifi bilan belgilanishi mumkin. Huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi, masalan, maxsus shaklni talab qilmaydigan daromad deklaratsiyasini qabul qilish [9]. Irodaning aniq ifodasi davlat boshqaruvi subyektining sukutidan ajralib turishi kerak, qachonki irodaning ifodasi ma'muriy organ irodasining mazmuni aniq bo'lgan og'zaki yoki yozma bayonotni almashtiradigan tegishli xatti-harakatlar bilan aniqlansagina ma'muriy akt bo'lishi mumkin. Masalan, muayyan politsiya xodimining to'xtash joyini tark etish yoki baxtsiz hodisa joyidan o'tib ketish buyrug'ini bildirgan

imo-ishorasi. Agar qonunda maxsus shakl nazarda tutilgan bo'lsa, irodani ifoda etishning aniq shakli chiqarib tashlanadi.

Ma'muriy Aktning keyingi xususiyati ma'muriy organ (hokimiyatni)ni ko'rsatish bilan ifodalanadi.[10] Bu xususiyat ma'muriy akt sifatida kvalifikatsiya qilingan kuch o'lchovining manbasini aniqlashtirish funksiyasini bajaradi. Germaniya federal ma'muriy tartib to'g'risidagi qonunga binoan ma'muriy organ davlat boshqaruvi (davlat boshqaruvi) vazifalarini amalga oshiruvchi har qanday tarkibiy shaxs (organ, muassasa, ularning bo'linmasi) sifatida aniqladi. Ushbu ta'rif bilan u davlat boshqaruvi jarayonida ishtirok etadigan juda ko'p organlar va muassasalarni qamrab oladi.

Qonunchilimizga nazar tashlaydigan bo'lsak, ma'muriy organlar — bu ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma'muriy boshqaruv vakolati berilgan organlar, shu jumladan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi

⁴ Allgemeines Verwaltungsrecht/von Jörn Ipsen. Berlin, 2000. (General administrative law / by Jörn Ipsen. Berlin, 2000)

⁵ Y.Saidazimov: "Ma'muriy hujjatni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarini takomillashtirish" dissertatsiya. Toshkent 2025.

⁶ Y.Saidazimov: "Ma'muriy hujjatni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarini takomillashtirish" dissertatsiya. Toshkent 2025.

boshqarish organlari, shuningdek ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalar hisoblanadi. Qonun loyixasida esa quyidagicha keltilgan, ma'muriy organlar — bu ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma'muriy boshqaruv vakolati berilgan organlar, shu jumladan davlat boshqaruv organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan maxsus tuzilgan komissiyalar va boshqa shaxslar deya keltirilgan. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, ma'muriy organ tushunchasining keng yoki tor talqin etilishi bevosita ma'muriy aktlarning doirasi va ularni bekor qilish imkoniyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Xususan, qonun loyihasida “boshqa shaxslar” iborasining kiritilishi ma'muriy-huquqiy vakolatga ega subyektlar doirasini kengaytirib, ma'muriy akt qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan subyektlar sonini oshiradi. u esa, o'z navbatida, bunday subyektlar tomonidan qabul qilingan hujjatlarni ma'muriy akt sifatida e'tirof etish hamda ularni bekor qilish masalasida yagona yondashuvni shakllantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Chunki ma'muriy aktni kim qabul qilganligi, uning vakolat doirasi va huquqiy maqomi ushbu aktni bekor qilishning asoslari va tartibini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi, xususan, Germaniya Federativ Respublikasi qonunchiligida ma'muriy organ tushunchasining keng talqin qilinishi natijasida ma'muriy akt qabul qilish vakolati nafaqat davlat organlariga, balki alohida ommaviy-huquqiy funksiyalarni bajaruvchi boshqa subyektlarga ham tatbiq etiladi. Shu sababli, ushbu subyektlar tomonidan qabul qilingan qarorlar ham ma'muriy akt sifatida e'tirof etilib, ular ustidan shikoyat qilish yoki ularni bekor qilish imkoniyati ta'minlangan. Shu nuqtai nazardan, milliy qonunchilikda ham ma'muriy organ tushunchasini yanada aniqlashtirish va uni kengroq yondashuv asosida mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Bu esa, o'z navbatida, ma'muriy aktlarni bekor qilish institutining amaliy qo'llanilishini takomillashtirish, vakolatli subyektlar doirasini aniq belgilash hamda huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan ziddiyatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Germaniya qonunchiligiga muvofiq ma'muriy organlar qatoriga barcha federal hokimiyatlar, federal shtatlar va shahar hokimiyatlari, shuningdek, davlat korporatsiyalari, institutlari, fondlari ham kiradi. Davlat lavozimlarini egallagan shaxslar ham bir vaqtning o'zida monokratik bo'lsada, bir kishilik butun bir organni ifodalovchi ma'muriy organlar hisoblanadi. Ma'muriy organlarning alohida guruhini “erkin kasblar” ya'ni xususiy soxa vakillari deb ataladigan tashkilotlarning palatalari va bo'limlari rahbarlarining: (advokatlar, notariuslar, shifokorlar, arxitektorlar)ning qarorlari ham ma'muriy akt hisoblanadi.

Xulosalar

Yuqoridagilarni umumlashtirib shuni ta'kidlash lozimki, Germaniya Federativ Respublikasi qonunchiligida mustahkamlangan ma'muriy aktning xususiyatlari uni davlat boshqaruvining boshqa shakllaridan ajratishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq ushbu belgilar har doim ham har qanday qaror yoki harakatni ma'muriy akt sifatida e'tirof etish uchun yetarli mezon bo'la olmaydi. Shunga qaramay, ular ma'muriy aktlarni aniqlash, ularning huquqiy tabiatini belgilash hamda eng asosiysi, ularni bekor qilish institutini takomillashtirishda muhim yo'riqnoma vazifasini bajaradi. Bu esa, o'z navbatida, davlat boshqaruvini optimallashtirish va jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, ma'muriy akt ma'muriy organ yoki qonun bilan vakolat berilgan boshqa subyektlar tomonidan qabul qilinadigan qaror sifatida namoyon bo'ladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrda 24-son qarori 5-bandida “qaror” tushunchasiga berilgan ta'rif ma'muriy aktning mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv ma'muriy aktlarni aniqlash bilan birga, ularni

bekor qilish jarayonida ham qaysi hujjatlar ustidan shikoyat qilish mumkinligini belgilashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ma'muriy akt muayyan hujjatni rasmiylashtirish orqali ifodalanadi. Masalan, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar yoki haydovchilik guvohnomasining berilishi ma'muriy akt sifatida baholanadi. Bunday hujjatlarning noqonuniy ravishda berilishi yoki rad etilishi ularni bekor qilish yoki haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, ma'muriy akt faqat yozma shakl bilan cheklanmaydi, balki og'zaki, elektron yoki belgili shakllarda ham ifodalanishi mumkin. Shu bois, ularni bekor qilish masalasida faqat hujjat shakliga emas, balki uning tashqi huquqiy oqibat keltirib chiqarish xususiyatiga e'tibor qaratish zarur. Shu bilan birga, ma'muriy akt ichki idoraviy munosabatlarga emas, balki tashqi subyektlarga qaratilgan bo'lishi, normativ yoki jazolovchi emas, balki tartibga soluvchi (regulyativ) xususiyatga ega bo'lishi lozim.

Shunday qilib, ma'muriy aktning yuqoridagi belgilarini aniq belgilash va ularni qonunchilikda mustahkamlash ma'muriy aktlarni bekor qilish institutining samarali ishlashini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, huquqni qo'llash amaliyotida aniqlikni kuchaytirib, fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. Allgemeines Verwaltungsrecht/von Jörn Ipsen. Berlin, 2000. (General administrative law / by Jörn Ipsen. Berlin, 2000)
2. Maurer H. Allgemeines Verwaltungsrecht. 15. Auflage. München, 2008. (Maurer H. General administrative Law. 15th Edition. Munhen, 2008.)
3. Peine F.-J. Allgemeines Verwaltungsrecht, 9. Auflage. Verlag C. F. Mueller, 2008. (Peine F.-J. General Administrative Law, 9th edition. Verlag C. F. Mueller, 2008)
4. Wolff H. J., Bachof O., Stober R. Verwaltungsrecht I. 6. Auflage. München, 2000. (Wolff H. J., Bachof O., Stober R. Administrative Law I. 6th edition. Munich, 2000)
5. Bundesverfassungsgericht//Neue Juristische Wochenschrift. 1987. 2501(Bundesverfassungsgericht // Neue Juristische Wochenschrift. 1987. 2501)
6. Bundesverfassungsgerichtsentscheidung. 19. 68. (Federal Constitutional Court decision. 19. 68.)
7. Bundesgerichtshof // Neue Juristische Wochenschrift. 1987. 1945. (Federal Court of Justice // New legal weekly. 1987. 1945.)
8. Verwaltungsgerichtshof Baden-Wuerttemberg // Neue Zeitschrift fuer Verwaltungsrecht. 1987. 431f. (Administrative Court of Baden-Wuerttemberg // New journal for administrative law. 1987. 431f.)
9. Oberverwaltungsgericht Nordrhein Westfalen//Oberverwaltungsgerichtsen scheidungen. 16. 289.(Higher Administrative Court of North Rhine-Westphalia // Higher Administrative Court decisions. 16. 289.)
10. Saidazimov Y. Teoreticheskiy i pravovoy analiz administrativnix dokumentov [Theoretical and legal analysis of administrative documents]. Review of law sciences, 2020, no. 3, Spec. iss., pp. 19–24. DOI: 10.24412/2181-919X-2020-3-19-24/